Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligasiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligasiyalar bilan bog'liq risklar.....	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	



AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidaxmedova Aida Mirzayevna

TDIU "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdo vositalaridan foydalanishning huquqiy asoslari, tartib-taomillari hamda iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilik bazasi, onlayn birjalar orqali xarid jarayonini tashkil etish mexanizmlari va ularning ochiqlik, raqobat hamda tejamkorlik kabi mezonlar asosidagi afzalliklari yoritilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, mavjud tizimdagi muammolar aniqlanib, davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish va aksiyadorlik jamiyatlarining xarid amaliyotini takomillashtirish bo'yicha amaliy va institutsional takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, davlat xaridlari, elektron savdo, onlayn birja, raqobat, shaffoflik.

Abstract: This article analyzes the legal framework, procedural mechanisms, and economic efficiency of using electronic trading tools in public procurement processes within joint-stock companies. Particular emphasis is placed on the operation of online exchanges and their advantages in terms of transparency, competitiveness, and cost-effectiveness. Based on the findings, systemic issues in the current procurement framework are identified, and practical as well as institutional recommendations are proposed to improve procurement practices in joint-stock companies and enhance openness in public purchasing.

Key words: joint-stock companies, public procurement, electronic trade, online exchange, competition, transparency.

Аннотация: В статье проведён анализ правовых основ, процедур и экономической эффективности применения электронных торговых инструментов в процессе осуществления государственных закупок в акционерных обществах. Особое внимание уделено механизмам организации закупок через онлайн-биржи, их преимуществам в аспектах прозрачности, конкурентности и рациональности. На основе проведённого анализа выявлены проблемы действующей системы и предложены практические и институциональные рекомендации по совершенствованию закупочной деятельности акционерных обществ и обеспечению открытости в государственных закупках.

Ключевые слова: акционерные общества, государственные закупки, электронная торговля, онлайн-биржа, конкуренция, прозрачность.

KIRISH

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlarga davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirish kiradi. Shu sababli, bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari singari O'zbekiston Respublikasida ham davlat xaridlari tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish borasida qator tadbirlar ko'rilmogda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida xalqaro tajriba va iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllantirildi. Bunda asosiy urg'u byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, xarid jarayonida kichik biznes subyektlariga ko'proq imtiyozlar berish, hamda davlat xaridlari tizimining mavjud mexanizmlarini xalqaro andozalarga moslashtirish zarurati bilan belgilanmogda.

O'z navbatida, davlat xaridlari tizimida zamonaviy shakl va tartib-taomillarni ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylanmogda. Davlat xaridlarining takomillashtirilishi ushbu sohaning mukammal qonunchilik bazasini yaratish va uni xalqaro tajribaga mos ravishda rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, davlat xaridlari iqtisodiyotni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash instituti bo'lib, doimiy ravishda shartnoma tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Birinchidan, bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish jarayoni bo'lib, jamiyatning turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan shoshilinch ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Ikkinchidan, davlat xaridlari



sektori yalpi ichki mahsulotning katta qismini – kamida 7 foizdan 30 foizgacha – egallaydi. Uchinchidan, davlat uchun xaridlar byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.

Biroq, davlat xaridlarini samarali tashkil etish borasida mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlar yetarli darajada o'zini oqlamayapti. So'nggi yillarda davlat xaridlari sezilarli darajada yo'qotishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, davlat xaridlari bilan bog'liq bo'lgan savdolarning suiiste'mol qilinishi va aniqlangan qoidabuzarliklarning ko'payishi davlat, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari, korxonalar va jamoatchilikni jiddiy tashvishga solmoqda.

Ushbu sharoitlarni hisobga olgan holda, xaridlar sohasida samarali davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish sifatida korrupsiyaga qarshi monitoringni o'tkazish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu muammoning yechimi raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlarni to'plash, shaffoflikni ta'minlash va ma'lumotlarni tahlil qilish asosida davlat xaridlari sohasidagi real holat to'g'risida tasavvurga ega bo'lish hamda davlat ehtiyojlari uchun xaridlar shartlari va shaffofligini ta'minlash mexanizmlarini joriy etish orqali amalga oshirilishi kerak.

Hozirda korrupsiyaga qarshi monitoring uchun umumqabul qilingan ko'rsatkichlar, xaridlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan, davlat xaridlari hajmi va tuzilmasini baholaydigan optimal tizim shakllanmagan. Shu munosabat bilan davlat xaridlari amaliyotini takomillashtirish, davlat xarid siyosatini amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi monitoringni, xaridlarni tartibga solish va boshqarish tizimini rivojlantirish obyektiv ravishda dolzarbdur.

Dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida davlat xaridlari orqali mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalarini rivojlantirishga erishiladi. Davlat xaridlari ulushi YAIMda rivojlanayotgan mamlakatlarda 25 foizgacha, rivojlangan mamlakatlarda esa 30 foiz va undan yuqori miqdorda bo'lmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridlari tizimini boshqarishni baholash usul va mezonlari, davlat xaridlarini amalga oshirish tamoyillarini takomillashtirish, tovarlar va xizmatlarni yirik hajmda xarid etishning samarali shakli sifatida ochiq tanlovlar o'tkazish, xaridlarni amalga oshirish jarayonida samaradorlikni oshiradigan innovatsion vositalarni qo'llash, jami xarid jarayonlari, buyurtmalarni joylashtirish, narxlarni taklif qilish, shartnomalarni tuzish, yetkazib berish xizmati, to'lovlarni elektron savdo do'konlari orqali o'tkazish, buyurtmalar va tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilarning internet tizimi orqali xaridlarni amalga oshirishda raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan keng foydalanish bo'yicha izchil tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu keng ko'lamli masala yuzasidan davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida ta'kidlaganidek, hozirgi kunda davlat xaridlarida atigi 4 foiz tadbirkor qatnashmoqda. Kelgusi yilda 24 ta yirik davlat korxonasiga davlat xaridi bo'yicha ochiq-oshkora talablar joriy etiladi. Natijada mahalliy tadbirkorlarimiz har yili kamida 10 trillion so'mlik mahsulotlarini ushbu korxonalarga sotish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan buyon barcha davlat xaridlari jamoatchilik va Parlament nazoratida bo'lishi belgilandi. Shu bilan birga, davlat xaridlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish va raqobatni kuchaytirish maqsadida davlat xaridlari bo'yicha barcha ma'lumotlarni jamlovchi, maxsus axborot portallari va shu kabi boshqa tashqi axborot tizimlari bilan o'zaro elektron hamkorlikni ta'minlovchi Davlat xaridlari markaziy axborot portalini ishga tushirish maqsad va vazifalardan biri deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrda "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4544-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-maydagi "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4544-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublari yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3237-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 46-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarorlari, shuningdek, ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Quyidagi xorijlik iqtisodchi olimlar davlat xaridlari sohasining rivojlanishi va takomillashtirilishining asosiy qoidalari, davlat xaridlari hisobini tashkil etish hamda ularning oliy ta'lim tizimidagi samaradorligini baholash bo'yicha ayrim jihatlarni yoritgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borgan: I.I. Smotrinskaya, S.A. Bordunova,



A.I. Vorobieva, Ye.A. Mizikovskiy, E.A. Orlova, S.V. Pankova, A.A. Piskunov, K.V. Razuvaeva, T.M. Rogulenko, Yo.V. Sokolova, I.A. Tulseva, A.E. Sheveleva, T.G. Sheshukova va boshqalar.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan M.P. Yunusov, D.B. Qosimov, U. Urakov, U. Burxanov, Atamuradov [5] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham ushbu masalalar muhim tahlil etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil, ekspert baholash va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning ahamiyati hamda moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish yo'llarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlarini raqamlashtirishda muhim vosita hisoblangan maxsus axborot portali – bu operator tomonidan davlat xaridlarining barcha bosqichlarini elektron shaklda yuritishni ta'minlovchi axborot tizimidir. Ushbu portalda davlat xaridlariga oid e'lonlar, yakuniy natijalar, xarid jarayonidagi ishtirokchilarning takliflari, hamda amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa zaruriy ma'lumotlar joylashtiriladi va jamoatchilik uchun ochiq holda ko'rinish imkoniyati yaratiladi.

Maxsus axborot portali faqat axborot e'lon qilish platformasi bo'lib qolmasdan, u orqali elektron davlat xaridlarini to'liq tartibda o'tkazish mexanizmlari ham yo'lga qo'yilgan. Portalning funksional imkoniyatlari davlat xaridlarining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu portal tarkibida maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste'mol tovarlari, xizmatlar va ishlar bo'yicha xaridlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan alohida "elektron do'kon" maydonchasi mavjud. Elektron do'kon – bu xarid qilinadigan tovarlarning nisbatan kichik hajmdagi operatsiyalarini tez, byurokratik to'siqlarsiz amalga oshirish imkonini beruvchi, ochiq bozor mexanizmlariga asoslangan zamonaviy yechim hisoblanadi.


Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu platformalarning joriy etilishi davlat xaridlarining tezkorligini, ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilishini va xarajatlarni optimallashtirishni ta'minlab beradi. Shu orqali davlat byudjeti mablag'larining maqsadli va tejamkor sarflanishiga erishilmoqda. Biroq tizimda ayrim texnik va institutsional muammolar hali ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada chuqur integratsiyalash zarur.

Ushbu diagrammada elektron do'kon orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlarining qiymat chegaralari ko'rsatilgan. Ya'ni:

Tovarlar bo'yicha xaridlar – bitta shartnoma uchun 55,7 mln so'mgacha va yillik limit bo'yicha 557,5 mln so'mdan oshmasligi lozim.

Ishlar va xizmatlar uchun esa – har bir davlat buyurtmachisi uchun 5,5 mln so'mdan oshmaydigan miqdorlarda amalga oshiriladi.

Bu tartib BHM (bazaviy hisoblash miqdori) asosida belgilanadi va kichik hajmdagi xaridlar uchun elektron do'kon formatining qo'llanilishini tartibga soladi(1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida elektron do'kon orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlari [5].



Elektron do'kon – bu davlat xaridlarining ochiq va tezkor mexanizmiga asoslangan, ishtirokchilarning ilgari surgan takliflari asosida shakllanuvchi raqamli platformadir. Unda ishtirokchi tomonidan joylashtirilgan har bir taklif davlat buyurtmachilariga yo'naltirilgan ommaviy oferta sifatida baholanadi. Bu holatda, takliflar ommaviy xarid bozorida muqobil variantlar sifatida xizmat qiladi.

Davlat buyurtmachisi elektron do'konda mavjud bo'lgan oferta takliflarini ko'rib chiqadi va o'z ehtiyojiga mos keluvchi tovar, xizmat yoki ish turini tanlaydi. Tanlov amalga oshirilgach, buyurtmachi narxlar so'rovi mexanizmidan foydalanib, eng maqbul tijorat shartlarini aniqlashga kirishadi.


Maxsus axborot portalida esa avtomatik tarzda narxlar so'rovi bosqichini faollashtiradi va aynan shunday yoki o'xshash mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga xarid tartib-taomilida qatnashish bo'yicha taklifnoma yuboradi. Bu esa davlat xaridining raqobatga asoslangan va shaffofligini ta'minlovchi bosqich hisoblanadi.

Xarid natijalari bo'yicha, maxsus axborot portalida eng past narxni taklif qilgan ishtirokchi bilan davlat buyurtmachisi o'rtasida tuzilgan bitimni elektron tarzda rasmiylashtiradi va ro'yxatdan o'tkazadi.

Shuningdek, davlat xaridlarini rejalashtirish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va u xarid faoliyatining tizimlashtirilgan shaklga keltirilishi, byudjet hamda investitsiya jarayonlaridagi rejalashtirish bosqichlari bilan o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ushbu diagrammada davlat xaridlarini amalga oshirishning asosiy bosqichlari ketma-ketlikda ifodalangan.

Jarayon xarid ehtiyojini aniqlashdan boshlanadi, so'ng rejalashtirish, e'lon qilish, xaridni o'tkazish va yakuniy bosqichda ijrochilar bilan shartnoma tuzish orqali yakunlanadi (2-rasm).



2-rasm. Davlat xaridlari jarayonining bosqichlari [6].

Davlat xaridlarini amalga oshirishda eng muhim bosqichlardan biri – bu xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bosqichi bo'lib, u xarid faoliyatining asosiy qismini o'z ichiga oladi va davlat xaridlarining umumiy samaradorligini belgilab beradi. Aynan shu bosqichda davlat xaridlarini raqamli shaklda tashkil etish, ya'ni elektron savdo mexanizmlaridan foydalanish boshqa bosqichlarga nisbatan yuqoriroq natija berishi mumkinligi aniqlangan.

Mazkur fikrni quyidagicha asoslash mumkin: amaldagi qonunchilikda xarid tartib-taomillari doirasida elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, tanlov, tender hamda yagona yetkazib beruvchi bilan tuziladigan bitimlar asosidagi davlat xaridlarining turlari belgilangan. Ushbu turlar orqali davlat xaridlarini elektron shaklda amalga oshirish imkoniyati qonuniy jihatdan kafolatlangan.

Shunga muvofiq, elektron do'konlardagi xaridlar bilan bir qatorda boshqa davlat xaridlari – xususan, auksion, tanlov va tenderlar ham to'liq elektronlashtirilgan tartibda, maxsus elektron platformalar orqali o'tkazilishi samaradorlik va ochiqlikni oshiradi. Bu, o'z navbatida, davlat xaridlari tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni inobatga olgan holda, davlat xaridlari subyektlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi, davlat xaridlarini raqamli muhitda amalga oshirishga yo'naltirilgan yondashuv sifatida elektron davlat xaridlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunida besh turdagi xarid tartib-taomillari belgilangan:

1. elektron do'kon;
2. boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;
3. tanlov;
4. tender;
5. yagona yetkazib beruvchi bilan tuziladigan shartnomalar.

Mazkur turlardan birinchisi va ikkinchisi – ya'ni elektron do'kon hamda auksion inson omilining xarid qarorlariga ta'sirini istisno qiladi, ya'ni avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. Qolgan tartib-taomillar esa shaffoflikni ta'minlash maqsadida maxsus axborot portalida tegishli ma'lumotlarning e'lon qilinishi orqali ochiq tarzda o'tkaziladi.



Mazkur qonun bilan birinchi marotaba quyidagi yangi normalar xarid amaliyotiga kiritildi:

- yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish tartib-taomilining huquqiy asoslari;
- davlat xaridlarida odob-axloq qoidalarini joriy etish;
- xarid jarayonlarida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olish;
- yuqori texnologiyali va innovatsion ishlab chiqarishlarni rag'batlantirish;
- ekologik barqarorlikni saqlash kabi mezonlar [7].

Ushbu maqsadlarga erishish uchun, eng avvalo, davlat xaridlarining infratuzilmasini takomillashtirish zarur. Xususan, elektron xaridlar jarayonida barcha ishtirokchilarning o'zaro hamkorligini ta'minlovchi tashkiliy, axborot va texnik vositalarni o'z ichiga oluvchi integratsiyalashgan elektron xarid tizimini kengaytirish muhim vazifalardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari jarayonini elektronlashtirish ko'plab afzalliklarga ega bo'lib, u samaradorlikni oshirish, ochiqlikni ta'minlash, inson omilini kamaytirish va korrupsiya xavfini minimallashtirish kabi muhim ustunliklarni yuzaga chiqaradi. Elektron savdo maydonchalari orqali xaridlarni amalga oshirish davlat xaridlarining raqobatbardosh va shaffof bo'lishini ta'minlaydi.

Elektron savdo maydonchalari davlat xaridlarining zamonaviy shaklda tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi. Ular raqobatbardoshlikni oshiradi, chunki xarid jarayonlariga ko'plab kompaniyalar jalb etiladi va bu raqobatni kuchaytiradi hamda mahsulot va xizmatlar eng maqbul narxlarda xarid qilinishiga olib keladi. Ushbu tizim hududiy cheklavlarni ham bartaraf etadi, ya'ni elektron savdo orqali istalgan hududdagi yetkazib beruvchilar teng huquqli tarzda ishtirok eta oladi. Shuningdek, elektron xaridlar shaffoflik va ochiqlikni ta'minlaydi, chunki xarid jarayonlari ustidan nazorat qilish osonlashadi va bu orqali korrupsiya xavfi kamayadi. Elektron shakldagi xaridlar an'anaviy usullarga nisbatan kamroq vaqt, mehnat va moliyaviy xarajat talab qiladi, bu esa samaradorlikni oshiradi. Bunga qo'shimcha ravishda, elektron savdo maydonchalari xalqaro tajribaga asoslangan standartlashtirilgan xarid tartib-taomillarini tatbiq etish imkonini yaratadi, bu esa butun xarid tizimini yagona, aniq va samarali mexanizm asosida yuritishga xizmat qiladi. Shu sababli elektron xarid tizimi bugungi kunda davlat xaridlarining ishonchli, samarali va tejamkor yo'li sifatida e'tirof etilmoqda (1-jadval).

1-jadval. elektron savdo maydonchalarining afzalliklari [12].

Afzalliklar	Xususiyatlari
Raqobatbardoshlikni oshirish	Xarid jarayonlarida ko'p sonli kompaniyalar ishtirok etishi natijasida raqobat kuchayadi va oxir oqibat minimal narxlarga sifatli tovar va xizmatlar sotib olinadi.
Hududiy chegaralarni istisno etish	Elektron savdo orqali xaridlarni tashkil etish hududlar chegarasi va olisligi, shuningdek, bozor imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar tanqisligi kabi muammolarni bartaraf etadi.
Xaridlar shaffofligi va ochiqligini oshirish	Elektron savdo maydonchalaridan foydalanish xarid jarayonini samarali nazorat qilish imkonini beradi va shaffof savdo tizimini yaratadi.
Mehnat xarajatlarini qisqartirish	Elektron shakldagi xaridlar an'anaviy xaridlarga nisbatan kam vaqt talab etadi. Shunga ko'ra, yetkazib beruvchilarni qidirish, eng yaxshi takliflarni ajratish va muzokaralar o'tkazish bilan bog'liq xizmatchilarning ish hajmini qisqartiradi.
Xarid jarayonlarini standartlashtirish	Elektron maydonchalarda jahon amaliyotida eng samarali deb topilgan standartlashtirilgan xarid jarayonlaridan foydalaniladi.

O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini raqamlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni o'z vaqtida, maqbul miqdor va xilma-xillikda, belgilangan sifat darajasida hamda iqtisodiy jihatdan qulay narxlarda xarid qilishni ta'minlashdan iboratdir. Bunda asosiy e'tibor sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, davlat xaridlariga ko'proq tadbirkorlik subyektlarini jalb etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun xalqaro standartlarga mos mahsulotlar yaratishga zamin yaratishga qaratilgan.

1. Davlat xaridlari samaradorligini oshirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bu tizimga keng joriy etish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda chora-tadbirlarni jadallashtirish maqsadga muvofiq:



2. Davlat xaridlari jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish – bu borada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng qo'llash orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga erishiladi;

3. Shaffoflikni ta'minlash va korrupsion omillarni bartaraf etish – xaridlar tartib-taomillarining ochiqligini oshirish orqali inson omiliga bog'liq subyektiv qarorlarning oldi olinadi;

4. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – elektron xaridlarni rag'batlantiruvchi me'yorlarni kuchaytirish hamda davlat xaridlarini tartibga soluvchi institutlar faoliyatini isloh qilish zarur;

5. Qurilish sohasida elektron xarid tizimini joriy etish – loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari jarayonini elektron shaklga o'tkazish, shu jumladan loyiha va pudrat tashkilotlarining malaka talablariga muvofiqligini onlayn baholash tizimini yaratish lozim;

6. Maxsus axborot portalida qurilish xaridlariga doir bo'lim tashkil etish – bu orqali soha xususiyatlariga moslashtirilgan alohida elektron vositalarni joriy qilish mumkin bo'ladi;

7. Byudjet buyurtmachilarining tanlov asosida amalga oshiradigan barcha xaridlarini to'liq elektron shaklga o'tkazish – bu nafaqat byurokratik to'siqlarni kamaytiradi, balki mablag'larning ochiq va oqilona sarflanishini ta'minlaydi.

Shu tarzda olib boriladigan tizimli islohotlar davlat xaridlarida raqamli iqtisodiyot tamoyillarining joriy qilinishini jadallashtiradi, byudjet mablag'larining tejamkor sarflanishiga va ishlab chiqaruvchilar orasidagi raqobatning kuchayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.04.2018 y., 03/18/472/1050-son.
2. Yurchenko Ye. V., Yurchenko A. A. "Gosudarstvennye zakupki: sovremennye problemy" // Vestnik Finansovogo Universiteta, 4'2015.
3. Edasi I. A., Vdovenko Z. V. "Gosudarstvennye zakupki: osnovnye napravleniya i tendensii" // Uspekhi v khimii i khimicheskoy tekhnologii, tom XXXI, 2017, № 7.
4. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi.
5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
6. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 23-moddasi normalari asosida muallif tomonidan tuzildi.
7. Uraqov U. "Davlat xaridlari: kecha va bugun". <http://finance.uz>. 02.01.2019 y.
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2018 y., 10/18/3016/1279-son.
9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2019 y., 07/19/4544/4111-son.
10. <http://milliydokon.uzex.uz/ru/home/reports> – ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
11. <http://emilliydokon.uzex.uz/ru/Home/Reports> – ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
12. <https://review.uz/ru> – internet-resurs ma'lumotlari asosida keltirildi.
13. Myasnikova L. A., Tyurina K. A. "Sovremennye instrumenty povysheniya effektivnosti sistemy gosudarstvennykh zakupok" // Vestnik Permskogo Universiteta, 2016, Ekonomika, Vyp. 3(30), s. 132.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>